

**BO‘LAJAK OLIGOFRENOPEDEGOGLARNING METODIK KOMPITENTLIGINI
RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

**Nizomiy nomidagi milliy pedagogika universiteti
Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim fakulteti
Oligofrenopedagogika kafedrası o’qituvchisi
Gulyamova A.A**

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak oligofrenopedagoglarning metodik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, amaliy mashg‘ulotlar va interfaol metodlardan foydalanishning samarali jihatlari ko‘rib chiqilgan. Metodik tayyorgarlikning kasbiy shakllanishdagi o‘rni asoslab berilgan.

Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish, axborot texnologiyalarini joriy etishda ta’lim samaradorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Zamonaviy yaratilayotgan sharoitlarda ta’lim jarayonini tashkil etishda, bo‘lajak oligofrenopedagoglarning o‘quv faoliyatlarini sifatli amalga oshirish maqsadida innovatsion xarakterga ega vositalardan keng foydalanilmoqda.

Korreksion-pedagogik faoliyatda intellektida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakllari va metodlarini bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi; intellektida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus ta’lim muassasalarida sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, shakllari va metodlarini bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi; inklyuziv ta’limni amalga oshirish maqsadida umumta’lim muassasalarida korreksion-pedagogik faoliyatni amalga oshirishni bilishi; inklyuziv ta’limga jalb etilgan intellektida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ta’limiy, tarbiyaviy, korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni olib borishi; intellektida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun maxsus ta’lim muassasalarida fanlarni o‘qitishning maxsus metodikalarini egallagan bo‘lishi; intellektida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan psixokorreksion ishlarning mazmuni, shakllari va metodlarni bilishi va ularni amalda qo‘llay olishi; aqli zaif, psixik rivojlanishi kechikkan bolalarda nutqning fonetiko-fonematik, leksik-grammatik tomonidagi, o‘qish va yozishdagi nuqsonlarni, duduqlanish va nutqning to‘liq rivojlanmaganligini bartaraf etish yuzasidan ishlarni olib borishni bilishi; rivojlanishida og‘ir va ko‘p nuqsonga ega bo‘lgan bolalar uchun ularning psixik va ijtimoiy rivojlanishini kompleks baholash asosida yakka rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni bilishi; maktabgacha va maktab yoshidagi intellektida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishda o‘yin va interfaol texnologiyalarni qo‘llashni bilishi; tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatish agentligi va sog‘likni saqlash tizimi tasarrufidagi muassasalarda (ilk yoshdagi bolalar uylari va bolalar “Muruvvat” uylari) korreksion-rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etish uchun sharoit yaratish va bu ishlarni tashkil etishni bilishi; ixtisoslashtirilgan maxsus maktab va maktab -internatlarda mehnat ta’limini tashkil etish uchun sharoit yaratish va amalga oshirishni bilishi; rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish va tarbiyalash jarayonida himoya-pedagogik kun tartibini tashkil etishni, korreksion-pedagogik faoliyatni va boshqa ishlarni bolalarning psixik va jismoniy imkoniyatlarini e’tiborga olib sog‘lig‘ini mustahkamlashga qaratgan holda tashkil etishni bilishi; murakkab pedagogik vaziyatlar yuzaga kelganda ularni hal etish bo‘yicha ijodiy potentsialga ega bo‘lishi, korreksion-

pedagogik jarayonlarni, ta'limning mazmuni va metodlarini bolaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moslashtira olishi; tabiiy ofatlar va kutilmagan vaziyatlarda bolalar va o'quvchilarning hatti-harakatlarini to'g'ri tashkil etishni bilishi kerak.

L.M. Mitinaning fikricha, pedagogik imkoniyat -insonning pedagogik faoliyatga mosligi uning normal intellektual rivojlanishi, empatiya hissi, his-tuyg'ularining sahnaviyligi, kommunikativ-bilimiy faolligining normal darajada rivojlanligiga asoslanadi. Pedagogik faoliyatga shaxsiy tayyorgarlik insonning "Inson – Inson" tipidagi kasbga yo'naltirilganligini nazarda tutadi, bu holatni L. M. Mitina pedagogik yo'nalganlik deb ataydi. Olimning nuqtai nazarini qabul qilgan holda, pedagogik yo'nalganlikni o'qituvchining pedagogik faoliyat va muloqotda o'zini namoyon etishga intilishini belgilovchi motivlar tizimi sifatida tushunamiz. Pedagogik yo'nalganlik esa o'z navbatida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchiga yo'nalganlik;
- o'ziga yo'nalganlik;
- o'qituvchilik kasbining predmet tomoniga yo'nalganlik.

Bunda Mitina, o'qituvchining boshqa odamlar bilan o'zaro aloqaga kirisha olishi suhbatdosh bilan oson va mos ravishda aloqa o'rnatish, uning reaksiyalarini kuzatish, ularga javob bera olish va muloqotdan zavq olish qobiliyatini nazarda tutadi. Pedagogik qobiliyat masalasi xaligacha ishlab chiqilayotgan mavzulardan xisoblanadi. Maxsus pedagogika sohasida biz bolalarning psixologik xususiyatlarini, ularning rivojlanish qonuniyatlarini, nuqsonli bolalar ta'limidagi o'ziga xos xususiyatlarni, ehtiyojini, o'rganish masalalarini o'rganib, o'qituvchining pedagogik imkoniyatlariga e'tibor qaratishimiz lozim. Biz ko'rib chiqayotgan olimlarning ilmiy izlanishlari mazmuni mehr-muhabbat, e'tibor, ulkan sabr-toqat va mehnatsevarlik, o'qituvchi optimizmi, fanlarini chuqur bilishi, ko'p qirrali va tizimli bilishning muhimligini, bazi vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish zarurligini ochib beradi.

Hozirgi vaqtda oliy pedagogik ta'lim nazariyasi va amaliyotining dolzarb yo'nalishlaridan biri – kelajakdagi mutaxassislarda kasbiy jihatdan muhim sifatlarni shakllantirish jarayonidir. Pedagogning kasbiy faoliyatiga oid turli nuqtai nazarlar zarur shaxsiy va kasbiy sifatlarni aniqlash va ularning mazmunini belgilash bo'yicha turli yondashuvlarni shakllantirdi.

- Birinchi yondashuvga ko'ra, kasbiy jihatdan muhim sifatlarni – bu pedagog o'z kasbiy funksiyalarini samarali bajarishi uchun ega bo'lishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasidir.
- Ikkinchi yondashuv esa ularni shaxsiy sifatlarni majmuasi sifatida tavsiflaydi, bu esa pedagogik faoliyatning ijobiy natijasini ta'minlaydi.

V. A. Slastenin o'qituvchining kasbiy jihatdan muhim sifatlari tarkibiga quyidagilarni kiritadi:

- ijtimoiy-jamoat yo'nalishini belgilovchi sifatlarni;
- kasbiy-pedagogik yo'nalishini belgilovchi sifatlarni;
- bilish yo'nalishini belgilovchi sifatlarni.
- Bo'lajak oligofrenopedagogning kasbiy jihatdan muhim sifatlari tarkibi va mazmunini o'rganish masalasi alohida e'tiborga loyiqdir. Chunki, bo'lajak oligofrenopedagogning kasbiy faoliyat xususiyatlari, pedagogik oliy o'quv yurti sharoitida kasbiy tayyorgarlik bosqichidayoq bir qator o'ziga xos kasbiy jihatdan muhim sifatlarni shakllantirish zaruratini belgilaydi. Defektologik ta'limning maqsadi esa nafaqat yuqori kasbiy layoqatga ega mutaxassis tayyorlash, balki turli toifadagi maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarni tarbiyalash va o'qitishga tayyor bo'lish uchun ijobiy psixologik yo'nalishni shakllantirishdan iboratdir degan fikrni ilgari suradi.

- So‘nggi vaqtlarda psixofizik rivojlanishida turli xil buzilishlarga ega bolalar sonining ortishi bo‘lajak oligofrenopedagoglarning kasbiy tayyorgarligini miqdor va sifat jihatdan takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bunday murakkab sharoitlarda Bo‘lajak oligofrenopedagoglarni sifatli tanlash va ularning kasbiy-shaxsiy tayyorgarligi muammosiga jamiyat va davlat tomonidan alohida e‘tibor qaratilishi lozim.

Bo‘lajak oligofrenopedagogning kasbiy jihatdan muhim sifatlarini aniqlashda I.P. Podlasiy ularni ikki asosiy guruhga ajratgan:

1. **Insoniy sifatlar** – insonparvarlik, mehribonlik, sabrlilik, halollik, vijdonlilik, javobgarlik, burchni his qilish, saxovat, odamlarga hurmat, axloqiylik, optimizm, muvozanatlilik, tarbiyalanuvchiga qiziqish, samimiylik, do‘stona munosabat, vazminlik, qadr-qimmatni saqlash, vatanparvarlik, yurakchanlik.
2. **Kasbiy sifatlar** – bolalarga mehr, mehnatsevarlik, ishchanlik, intizomlilik, maqsad qo‘ya bilish, tashkilotchilik, qat‘iyatlilik, adolatlilik, mahorat, pedagogik takt, pedagogika nazariyasini bilish, bolalar psixologiyasini bilish, metodikaga egalik, ilg‘or texnologiyalardan foydalanish, talabchanlik, hazil tuyg‘usi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ястребова Л.А. Формирование профессионально значимых качеств будущих педагогов-олигофренопедагогов: автореф. дис. ... канд. пед. наук / – Ставрополь, 2008. – 21 с.
2. Яковлева И.М. Формирование профессиональной компетентности учителя-олигофренопедагога в системе непрерывного педагогического образования : Автореф. дис. ... д-ра. пед. наук. М., 2010. 45 с.
3. Рубинштейн М.М. Проблема учителя. М.: «Академия», 2004.-170 с.
4. Qo‘ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. T.: “Fan”, 2009.
5. Гладун Л.А. Особенности методической компетентности и компетенций специального педагога // Вестник Костромского государственного университета; серия Педагогика, психология, социокинетика. – 2018. – № 1. – С. 168-172.